



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 02 | pp. 118-126 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

EHTIYOJMAND AHOLINI MOLİYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHDA QO‘LLANILAYOTGAN VOSITALAR: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA TAHLILI



Bafoev Farrux Jo‘raqulovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada aholining ehtiyojmand qatlamlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash sohasidagi amaldagi mexanizmlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda nafaqa, subsidiya, grantlar, ijtimoiy nafaqalar va boshqa moliyaviy yordam turlarining mazmun-mohiyati hamda ularning aholi turmush darajasiga ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalari orqali kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy adolatni ta’minlash va aholining iqtisodiy faolligini oshirishda davlat siyosatining samaradorligi baholangan.

Kalit so‘zlar: ehtiyojmand aholi, ijtimoiy himoya, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, subsidiya, nafaqa, grant, davlat budjeti, ijtimoiy siyosat, kambag‘allikni qisqartirish, manzilli yordam, ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik, raqamli monitoring, ijtimoiy dasturlar, davlat-xususiy hamkorligi.

Аннотация. В данной статье проведён научный анализ действующих механизмов финансовой поддержки нуждающихся слоёв населения. Рассмотрены сущность и эффективность таких инструментов, как пособия, субсидии, гранты и другие формы финансовой помощи, а также их влияние на уровень жизни населения. Оценена результативность государственной политики в сфере сокращения бедности, обеспечения социальной справедливости и повышения экономической активности населения посредством механизмов финансовой поддержки.

Ключевые слова: нуждающееся население, социальная защита, финансовая поддержка, субсидия, пособие, грант, государственный бюджет, социальная политика, сокращение бедности, адресная помощь, социальная справедливость, экономическая стабильность, цифровой мониторинг, социальные программы, государственно-частное партнёрство.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the existing mechanisms for financial support to vulnerable groups of the population. The study examines the nature and effectiveness of social benefits, subsidies, grants, and other financial aid instruments, as well as their impact on the standard of living of the population. The article assesses the efficiency of state policy in reducing poverty, ensuring social justice, and enhancing economic activity through financial support mechanisms.

Keywords: vulnerable population, social protection, financial support, subsidy, pension, grant, state budget, social policy, poverty reduction, targeted assistance, social justice, economic stability, digital monitoring, international experience, social programs, public-private partnership.

Kirish

Bugungi kunda dunyo miqyosida ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri aholining ehtiyojmand qatlamlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning munosib turmush darajasini ta'minlashdan iborat. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va BMTning barqaror rivojlanish maqsadlariga ko'ra, moliyaviy yordam va ijtimoiy himoya mexanizmlarining samaradorligi mamlakat iqtisodiy barqarorligi hamda ijtimoiy adolatning ta'minlanish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan davlatlar ijtimoiy yordamning turli vositalarini — subsidiyalar, nafaqalar, grantlar, ijtimoiy nafaqalar va boshqa moliyaviy instrumentlarni qo'llagan holda aholi farovonligini oshirishga intilmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasida ham keyingi yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Xususan, "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy yordam turlarini manzilli va shaffof mexanizmlar asosida taqdim etish ustuvor vazifa etib belgilangan. Davlat budjeti mablag'lari hisobidan nafaqalarni indekslash, uy-joy subsidiyalarini joriy etish, bolali oilalarga moliyaviy yordam ko'rsatish, shuningdek, xotin-qizlar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan grant dasturlari bu yo'nalishdagi muhim qadamlaridir.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar va nodavlat sektori ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar ham aholining ehtiyojmand qatlamlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi, Jahon banki va Islom taraqqiyot banki kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir qator grant va subsidiya dasturlari amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda asosiy e'tibor moliyaviy yordamning manzilliligi, samaradorligi va shaffofligini ta'minlashga qaratilmoqda.

Shu bilan birga, amaldagi tizimda hal etilishi lozim bo'lgan bir qator muammolar ham mavjud: yordam oluvchilarni aniqlashda ma'lumotlar bazasining yetarlicha integratsiya qilinmaganligi, moliyaviy resurslarning taqsimlanishida byurokratik to'siqlar, yordam shakllarining yagona metodologik asosda baholanmasligi kabi omillar samaradorlikni cheklamoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — O'zbekistonda ehtiyojmand aholini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimida qo'llanilayotgan vositalarning iqtisodiy mazmunini, ularning ijtimoiy samaradorligini hamda rivojlangan mamlakatlar tajribasi bilan taqqoslangan holda takomillashtirish yo'llarini aniqlashdan iborat. Shu maqsadda tadqiqot doirasida nafaqa, subsidiya, grantlar va boshqa moliyaviy yordam vositalari tahlil qilinib, ularning aholining daromadlari, kambag'allik darajasi va ijtimoiy faolligiga ta'siri baholanadi.

Adabiyotlar sharhi

Ehtiyojmand aholini moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalasi jahon iqtisodiy va ijtimoiy siyosat ilmiy adabiyotlarida keng yoritilgan. Ilk tadqiqotlar asosan ijtimoiy davlat konsepsiyasi va uning amaliy mexanizmlariga qaratilgan bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmida T. Marshall (Marshall, 1950), U. Beveridj (Beveridge, 1942) kabi olimlar ijtimoiy himoya tizimini inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida asoslab berganlar. Ular ijtimoiy davlat modelining asosiy vazifasi aholining ehtiyojmand qatlamlariga davlat yordamini kafolatlash ekanligini ta'kidlaganlar.

Iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi tadqiqotlar ham muhim ahamiyatga ega. M. Titmuss (Titmuss, 1974) ijtimoiy siyosatni iqtisodiy samaradorlikning muhim omili sifatida ko'rgan, unga ko'ra moliyaviy yordam vositalari nafaqat ijtimoiy tenglikni ta'minlaydi, balki ishchi kuchi sifatini yaxshilash orqali iqtisodiy o'sishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, J. Stiglitz (Stiglitz, 2012) va A. Sen (Sen, 1999) inson rivojlanishining iqtisodiy va ijtimoiy o'lchovlarini birgalikda baholash zarurligini ta'kidlab, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash vositalarini "inson kapitaliga investitsiya" sifatida talqin etadilar.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon banki (World Bank, 2021) va BMT (UNDP, 2020) tadqiqotlarida ham ijtimoiy himoyaning moliyaviy instrumentlariga alohida e'tibor qaratilgan. Ularning tavsiyalariga ko'ra, samarali ijtimoiy yordam tizimi uchta asosiy tamoyilga tayanadi: manzillilik, shaffoflik va barqaror moliyalashtirish manbalari. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi tajriba (OECD, 2019) moliyaviy yordamning raqamli boshqaruvi va avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish ijtimoiy dasturlarning samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.

Milliy darajada esa O'zbekiston olimlari tomonidan ijtimoiy himoya va moliyaviy yordam tizimi bo'yicha qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Xususan, J.X. Bobanazarova iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiy himoyaning ahamiyati hamda kambag'allikni qisqartirishda davlat subsidiyalari va nafaqalarining ta'sirini tahlil etgan bo'lsa, Q.X. Abdurahmonov ijtimoiy adolat tamoyillarini ta'minlashda moliyaviy qo'llab-quvvatlash siyosatining institutsional asoslarini o'rgangan. Shuningdek, Sh. Rahimov ijtimoiy yordam shakllarini iqtisodiy faollikni rag'batlantirish vositasi sifatida ko'rib chiqib, ijtimoiy sarmoyani oshirishga qaratilgan yangi mexanizmlarni taklif etgan.

So'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning innovatsion shakllari — raqamli subsidiyalar, elektron grant platformalari va avtomatlashtirilgan ijtimoiy reyestrlar keng muhokama qilinmoqda. Bu tendensiyalar ijtimoiy himoya tizimlarining samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Yuqorida keltirilgan manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, aholining ehtiyojmand qatlamlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash sohasidagi ilmiy izlanishlar ko'p jihatdan makroiqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy adolat va davlat siyosatining institutsional rivoji bilan uzviy bog'liq. Biroq O'zbekiston sharoitida mazkur vositalarning samaradorligini baholash, ularning xalqaro tajriba bilan integratsiyasi va raqamli monitoring mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash hali yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotni amalga oshirishda tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Avvalo, O'zbekistonda aholini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimidagi asosiy vositalar — subsidiya, nafaqa va grantlar bo'yicha mavjud normativ-huquqiy baza hamda amaliy natijalar tahlil etildi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba bilan taqqoslash asosida milliy modelning afzal va zaif jihatlari aniqlandi. Tadqiqotda Davlat statistika qo'mitasi, Moliya vazirligi va Jahon bankining ochiq ma'lumotlari asosida statistik tahlil o'tkazildi. Olingan natijalar ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishda ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Tahlil va natijalar

O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining rivojlanishi mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi. So'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida aholining ehtiyojmand qatlamlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Bu jarayon "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" doirasida izchil amalga oshirilmoqda, unda kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ijtimoiy siyosatning ushbu yo'nalishi amaliy natijalarda ham o'z ifodasini topmoqda. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda ijtimoiy himoya va moliyaviy yordam dasturlariga davlat budjeti mablag'larining 35,6 trln so'midan ortig'i yo'naltirilgan bo'lib, bu davlat budjeti xarajatlarining 20,3 foizini tashkil etadi. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlariga yo'naltirilayotgan mablag'larning bunday o'sishi davlat siyosatining ijtimoiy yo'nalishini kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu holat ijtimoiy sarflar samaradorligini baholashda ilmiy yondashuvning ahamiyatini oshiradi.

Ijtimoiy yordamni taqsimlashda raqamli islohotlar muhim burilish nuqtasini yaratdi. 2021 yilda joriy etilgan "Yagona ijtimoiy reyestr" tizimi orqali nafaqa, moddiy yordam va boshqa ijtimoiy to'lovlar avtomatlashtirilgan axborot platformasi asosida taqsimlanmoqda. Bu tizim yordamida yordam oluvchilarni aniqlashda inson omillari ta'siri kamaydi, ma'lumotlar bazalari (soliq, mehnat, aholi ro'yxati) o'zaro integratsiya qilindi va byurokratik to'siqlar qisqardi. Natijada ijtimoiy yordamning manzilliligi va shaffofligi keskin oshdi.

Raqamli boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi ijtimoiy yordam taqsimotini nafaqat institutsional darajada, balki aniq toifalar kesimida tahlil qilish imkonini bermoqda. Ayniqsa, mehnatga layoqatli a'zolari mavjud bo'lmagan va I guruh nogironligi bo'lgan shaxslar yashaydigan davlat ta'minotidagi oilalar toifasi ijtimoiy himoya tizimining eng yuqori ijtimoiy xavf guruhini tashkil etadi. Mazkur toifa bo'yicha moliyaviy resurslarning hududlar kesimida taqsimoti, ajratilishi rejalashtirilgan mablag'lar va yil boshidagi qoldiq mablag'lar tahlili ijtimoiy sarflarning manzilliligi hamda fiskal samaradorligini baholash imkonini beradi. Shu maqsadda quyida "Ijtimoiy reyestr" ma'lumotlari asosida mazkur toifa bo'yicha ajratilayotgan mablag'lar tahlil qilinadi.

Quyida keltirilgan jadvalda "Ijtimoiy reyestr" tizimi ma'lumotlari asosida davlat ta'minotidagi, I guruh nogironligi bo'lgan va mehnatga layoqatli a'zolari mavjud bo'lmagan oilalar bo'yicha hududlar kesimida ajratilishi kutilayotgan mablag'lar hamda yil boshidagi qoldiq resurslar hajmi aks ettirilgan. Mazkur ma'lumotlar ijtimoiy moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining hududiy taqsimoti, resurslar konsentratsiyasi va manzillilik darajasini iqtisodiy jihatdan baholash imkonini beradi.

1-jadval

“Ijtimoiy reyestr”ning “davlat ta’minotidagi oila” toifasiga kiritilgan, oilasida I guruh nogironligi bo’lib, mehnatga layoqatli shaxslar bo’lmagan oilalarga ajratilishi kutilayotgan mablag’lar¹, mln so’m

MA’LUMOT

T/r	Hudud nomi	Oila soni	Ijtimoiy daftarlardan ajratilishi kutilayotgan mablag’	Ijtimoiy daftarlarning yil boshidagi qoldiq mablag’i
Жами		6,734	200,000	962,189
1	Qoraqalpog’iston r.	494	14,672	53,097
2	Andijon	568	16,870	68,704
3	Buxoro	311	9,237	44,948
4	Jizzax	278	8,257	28,510
5	Qashqadaryo	749	22,245	115,007
6	Navoiy	211	6,267	22,814
7	Namangan	563	16,721	64,556
8	Samarqand	845	25,097	108,125
9	Surxondaryo	663	19,691	73,683
10	Sirdaryo	170	5,049	25,969
11	Toshkent v.	446	13,246	98,258
12	Farg’ona	662	19,661	95,346
13	Xorazm	543	16,127	61,215
14	Toshkent sh.	231	6,861	101,957

Jadval ma’lumotlari “davlat ta’minotidagi oila” toifasiga kiritilgan va mehnatga layoqatli a’zolari mavjud bo’lmagan I guruh nogironligi bo’lgan oilalarni moliyaviy qo’llab-quvvatlash hududlar kesimida muayyan konsentratsiyaga ega ekanini ko’rsatadi. Jami 6 734 ta oila uchun 200 mlrd so’m mablag’ ajratilishi rejalashtirilgan bo’lib, yil boshida mazkur yo’nalish bo’yicha 962,2 mlrd so’m qoldiq resurs mavjudligi qayd etilgan. Bu holat ijtimoiy sarflarning fiskal qoplanish darajasi yuqori ekanini anglatadi, biroq resurslardan foydalanish samaradorligini baholash zarurligini ham ko’rsatadi.

Hududiy tahlil shuni ko’rsatadiki, moliyaviy yukning asosiy qismi demografik jihatdan yirik va ijtimoiy xavf ko’rsatkichi yuqori bo’lgan hududlarga to’g’ri kelmoqda. Masalan, Samarqand (845 ta oila), Qashqadaryo (749 ta) va Surxondaryo (663 ta) viloyatlarida oilalar soni yuqori bo’lib, mos ravishda ajratilishi rejalashtirilgan mablag’lar ham katta ulushni tashkil etadi. Bu holat resurs allokatstiyasining ijtimoiy ehtiyoj darajasiga nisbatan mutanosibligini ko’rsatadi.

Yil boshidagi qoldiq mablag’ning rejalashtirilgan ajratmalardan qariyb besh barobar yuqori ekani budjet ijrosi va mablag’larni o’zlashtirish dinamikasini chuqur tahlil qilish zarurligini anglatadi. Agar mablag’lar o’z vaqtida va maqsadli yo’naltirilmasa,

¹ Jadval O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma’lumotlari asosida tuzildi.

ijtimoiy xarajatlarning iqtisodiy multiplikativ ta'siri pasayishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy moliyaviy qo'llab-quvvatlashni natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish (result-based financing) tamoyili asosida takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari ijtimoiy yordamning manzillilik darajasi oshganini tasdiqlasa-da, resurslarning hududiy taqsimoti, o'zlashtirish koeffitsienti va bir oilaga to'g'ri keladigan xarajat indikatorlarini chuqurroq tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa ijtimoiy moliyaviy mexanizmlarning iqtisodiy samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan hududiy tahlil ijtimoiy moliyaviy resurslarning maqsadli taqsimoti va alohida toifalar kesimida konsentratsiyasini ko'rsatsa, mazkur mexanizmlarning umummilliy darajadagi iqtisodiy va ijtimoiy natijalarini baholash yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy reyestr orqali manzilli yordam taqdim etishning kengayishi va resurs allokat-siyasining raqamli asosda tashkil etilgani kambag'allik dinamikasi hamda ijtimoiy qamrov ko'rsatkichlarida o'z aksini topmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy yordam dasturlarining qamrov darajasi va manzillilik koeffitsientini makrodarajada tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Jahon bankining 2023 yilgi "Uzbekistan Poverty and Equity Assessment" hisobotida ta'kidlanishicha, O'zbekistonda ijtimoiy yordam dasturlarining qamrovi 2020 yilda aholining 46 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda 67 foizga yetgan. Bu raqamlar moliyaviy yordam tizimi samaradorligining ortib borayotganini, ayniqsa raqamli boshqaruv va ma'lumotlar tahlili imkoniyatlari kengayganini ko'rsatadi. Shuningdek, yordamning manzillilik ko'rsatkichi 52 foizdan 78 foizga oshgan bo'lib, bu ijtimoiy dasturlarning kambag'allikni qisqartirishdagi ta'sirini kuchaytirayotganini anglatadi.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda kambag'allik darajasi 2020 yilda 17 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda 11 foizga tushgan. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy himoya dasturlarining iqtisodiy samaradorligini namoyon etadi. Kambag'allik darajasining pasayishi faqat ijtimoiy to'lovlar hisobiga emas, balki aholining iqtisodiy faolligini rag'batlantiruvchi moliyaviy instrumentlar — subsidiyalar, grantlar va mikrokreditlar ta'siri orqali ham ta'minlanmoqda.

Shunday qilib, tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi institutsional jihatdan shakllangan va raqamlashtirish jarayoni orqali samaradorligi ortib bormoqda. Biroq, ma'lumotlar bazalarini to'liq integratsiya qilish, moliyaviy yordam natijadorligini baholashning aniq indikatorlarini joriy etish hamda yordam shakllarini inson kapitali rivojiga yo'naltirish masalalari hali yechim talab qiladi. Bu masalalarni hal etish ijtimoiy siyosatning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat subsidiyalari va ijtimoiy nafaqalar aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash tizimining asosiy moliyaviy instrumentlari hisoblanadi. Ular orqali davlat, bir tomondan, ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlasa, ikkinchi tomondan, ichki talabni rag'batlantirish orqali iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlaydi. O'zbekistonda bu yo'nalish so'nggi besh yil ichida yangi institutsional va raqamli asosda qayta shakllandi.

Davlat subsidiyalari tizimi ijtimoiy himoyaning muhim tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy faol aholi guruhlariga ham qaratilgan. Masalan, uy-joy sotib olish yoki qurish uchun berilayotgan uy-joy subsidiyalari aholining turmush darajasini yaxshilashda

muhim omilga aylandi. 2023 yilda 42 mingdan ziyod oila ushbu yo'nalish bo'yicha davlat subsidiyasi olgan, buning uchun 1,5 trln so'm ajratilgan³. Bu ko'rsatkich nafaqat ijtimoiy himoya nuqtayi nazaridan, balki ichki qurilish bozorini rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi omil sifatida ham ahamiyatlidir.

Shu bilan birga, energetika tejankor texnologiyalarni xarid qilish uchun berilayotgan subsidiyalar ham aholining moliyaviy yukini kamaytirishda samarali bo'lmoqda. 2024 yilda bu yo'nalishda 180 mingdan ortiq xonadonga jami 600 mlrd so'mlik subsidiya berilgan. Bu ma'lumot Energetika vazirligi hisobotida (2024) keltirilgan bo'lib, so'nggi uch yilda subsidiyalar hisobiga aholining energiya sarfi o'rtacha 7–8 foizga qisqarganini ko'rsatadi⁴.

Ijtimoiy nafaqalar tizimida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Avval nafaqalar mahalla tavsiyasi bilan berilar edi, hozirda esa ular "Yagona ijtimoiy reyestr" orqali avtomatlashtirilgan shaklda hisoblanmoqda. Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda nafaqa va moddiy yordamning 92 foizi elektron arizalar orqali rasmiylashtirilgan⁵. Bu tizim yordamida takroriy to'lovlar soni ikki barobarga qisqardi, har bir murojaat elektron identifikatsiya orqali baholanadi. Bu holat jahon tajribasida ham samarali hisoblanadi, chunki raqamli platformalar shaffoflik va manzillilikni ta'minlaydi (World Bank, 2023).

Shuni ham ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda nafaqa va subsidiyalar faqat ijtimoiy ahamiyatga emas, balki iqtisodiy barqarorlikka ham ta'sir ko'rsatmoqda. 2024 yilda ijtimoiy to'lovlar va subsidiyalar orqali 2,1 millionga yaqin fuqaroning daromadlari qo'llab-quvvatlangan, bu mamlakatning ichki iste'mol talabini 1,3 foizga oshirishga xizmat qilgan. Xalqaro tajribada bunday yo'nalish "ijtimoiy xarajatlarning multiplikativ ta'siri" sifatida ta'riflanadi — ya'ni ijtimoiy to'lovlar iqtisodiy o'sishning ichki drayveriga aylanadi.

O'zbekistonda aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash tizimida xalqaro moliyaviy tashkilotlar va donor institutlarining ishtirok darajasi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshdi. Bu jarayon ijtimoiy siyosatning moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, budjet yukini kamaytirish va yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish imkonini berdi.

Jahon banki (World Bank), BMTning Taraqqiyot dasturi (UNDP) va Osiyo taraqqiyot banki (ADB) kabi xalqaro tashkilotlar O'zbekistonda ijtimoiy himoya va kambag'allikni qisqartirish sohasida qator dasturlarni amalga oshirmoqda. Masalan, Jahon bankining "Modernization of Social Protection System Project" doirasida 2021–2024 yillar davomida 200 mln AQSh dollari miqdorida grant va imtiyozli qarz mablag'lari ajratilgan bo'lib, loyihaning asosiy maqsadi "Yagona ijtimoiy reyestr" orqali yordam taqsimotining manzilliligi va shaffofligini oshirishdan iborat bo'ldi.

Shuningdek, UNDP Uzbekistan'ning 2022–2025 yillarga mo'ljallangan "Inclusive Social Development Programme" dasturi orqali mamlakatning 10 ta hududida mahalliy ijtimoiy himoya markazlari faoliyatini raqamlashtirish, gender tengligi va yoshlar imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu dastur doirasida 2023 yil yakuniga qadar jami 18,4 mln AQSh dollari grant mablag'lari jalb etilgan.

Shu bilan birga, xalqaro yordamning samaradorligini baholash masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Jahon banki (2023) va UNDP (2024) hisobotlarida qayd

etilishicha, O'zbekistonda ijtimoiy himoya loyihalarida grant mablag'larining ijtimoiy qaytishi (social return ratio) har bir sarflangan 1 dollar uchun taxminan 1,4 dollarlik ijtimoiy samara bilan ifodalanadi. Bu ko'rsatkich xalqaro amaliyotda yuqori hisoblanadi (masalan, Turkiyada — 1,3; Polshada — 1,2).

Umuman olganda, xalqaro yordam vositalari milliy ijtimoiy siyosatning muhim bo'g'iniga aylanmoqda. Ular nafaqat moliya manbalari bilan ta'minlaydi, balki boshqaruv samaradorligini, axborot tizimlarini va jamoat nazoratini kuchaytiradi. Shu sababli grantlar va xalqaro hamkorlik mexanizmlarini milliy moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi bilan integratsiya qilish kelgusida ijtimoiy siyosatning barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda aholining ehtiyojmand qatlamlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi keyingi yillarda institutsional va moliyaviy jihatdan sezilarli darajada takomillashdi. Davlat budjeti xarajatlarida ijtimoiy yo'nalishli sarflar ulushining ortishi, raqamli platformalar ("Yagona ijtimoiy reyestr")ning joriy etilishi va xalqaro grant loyihalarining faollashuvi tizimning samaradorligini kuchaytirdi. Bu o'zgarishlar nafaqat kambag'allik darajasining qisqarishiga, balki aholining iqtisodiy faolligi va ijtimoiy barqarorlikning oshishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, tizimda yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud: yordam oluvchilarni aniqlashda ma'lumotlar bazalarining to'liq integratsiya qilinmaganligi, resurslar taqsimotida hududiy nomutanosiblik hamda yordam shakllarining natijaviyligini baholash indikatorlarining yetishmasligi shular jumlasidandir. Ushbu muammolarni bartaraf etish tizimning shaffofligini oshirish va ijtimoiy siyosatning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

- **Raqamli integratsiyani chuqurlashtirish.** Davlat organlari ma'lumotlar bazalarini birlashtirish orqali yordam oluvchilarni aniqlash jarayonini avtomatlashtirish lozim. Bu manzillilik va shaffoflikni ta'minlaydi.
- **Ijtimoiy yordamning samaradorlik indikatorlarini joriy etish.** Yordam turlari bo'yicha natijadorlikni baholaydigan yagona mezonlar ishlab chiqish zarur (masalan, "qamrov darajasi", "moliyaviy qaytishi", "ijtimoiy ta'sir indeksi").
- **Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish.** Ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishda korporativ ijtimoiy mas'uliyat (CSR) mexanizmlarini rivojlantirish lozim.
- **Grant va xalqaro loyihalarni milliy mexanizmlar bilan muvofiqlashtirish.** Jahon banki, UNDP va ADB dasturlarini milliy strategiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mumkin.
- **Raqamli monitoring tizimini yaratish.** Barcha ijtimoiy to'lovlar va subsidiyalar haqidagi ma'lumotlarni qamrab oladigan ochiq ma'lumotlar platformasini shakllantirish zarur.
- **Hududiy tafovutlarni kamaytirish.** Ijtimoiy yordam resurslarini taqsimlashda hududlarning iqtisodiy salohiyati va kambag'allik darajasini inobatga olish lozim.

- **Ijtimoiy innovatsiyalar dasturini joriy etish.** Aholining faol qatlamlarini grantlar, mikromoliyalashtirish va kraudfanding orqali rag'batlantirish ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshiradi.

Umuman olganda, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash tizimi ijtimoiy barqarorlik va inklyuziv iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Ilmiy tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, moliyaviy yordam vositalari samaradorligini oshirish faqat mablag' hajmini ko'paytirish bilan cheklanmaydi, balki boshqaruv, axborot va monitoring tizimlarini takomillashtirishni ham talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni, 28.01.2022. "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2024). "Davlat budjeti ijrosi bo'yicha 2024 yil 1-yarim yillik hisobot". IMV.uz.
3. Ijtimoiy himoya milliy agentligi. (2024). "Yagona ijtimoiy reyestr orqali ko'rsatilayotgan yordam turlari to'g'risida ma'lumot". saxovat.gov.uz.
4. World Bank. (2023). *Uzbekistan Poverty and Equity Assessment Report 2023*. Washington, D.C.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2024). "Ijtimoiy himoya va aholining daromadlari statistikasi". stat.uz.
6. Asian Development Bank. (2023). *Strengthening Social Protection and Employment Support in Uzbekistan*. Manila: ADB Publications.
7. Marshall, T. H. (1950). *Citizenship and Social Class*. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Beveridge, W. (1942). *Social Insurance and Allied Services*. London: His Majesty's Stationery Office.
9. Titmuss, R. M. (1974). *Social Policy: An Introduction*. London: Allen & Unwin.
10. Sen, A. (1999). *Development as Freedom*. New York: Alfred A. Knopf.
11. Stiglitz, J. E. (2012). *The Price of Inequality*. New York: W.W. Norton & Company.
12. Улашев И. О., Атамурадов Ш. А. Корхона иқтисодиёти ва менежменти //Ўқув қўлланма. Тошкент-2013. – 2013.
13. Атамурадов Ш. А. Роль налогов в формировании доходной части государственного бюджета республики Узбекистан //Совершенствование налоговой политики государства в условиях глобализирующейся экономики. – 2014. – С. 107-111.
14. Атамурадов Шерзод Акрамович Инновацион фаолиятни венчурли молиялаштиришнинг халқаро моделларини жорий этиш самарадорлиги // Экономика и финансы (Узбекистан). 2019. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsion-faoliyatni-venchurli-moliyalashtirishning-hal-aro-modellarini-zhoriiy-etish-samaradorligi> (дата обращения: 27.02.2026).

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

